

MILLIY SUG‘URTA BOZORINING XALQARO INTEGRATSIYALASHUVI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Xolbayev Azamat Yuldashovich
Baholash ishi, investitsiyalar va sug‘urta kafedrasi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD, dotsent
Email: xolbayev.azamat80@gmail.com

Baxtiyorov Shahzod Begzodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 4-kurs talabasi
Email: shahzodbaxtiyorov63@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari, zamonaviy tendensiyalari hamda rivojlanish istiqbollari tadqiq etiladi. Tadqiqotda O‘zbekiston sug‘urta bozorining institutsional rivojlanishi, sug‘urta xizmatlari tarkibi va hajmi, xalqaro sug‘urta bozoriga integratsiyalashuv jarayonlari, xorijiy sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlik mexanizmlari hamda xalqaro standartlarni milliy amaliyotga joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Xalqaro sug‘urta nazoratchilari assotsiatsiyasi (IAIS) tamoyillari, xalqaro sug‘urta nazorati standartlari va ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida milliy sug‘urta bozorining raqobatbardoshligini belgilovchi omillar o‘rganiladi. Maqolada sug‘urta xizmatlarini diversifikatsiyalash, xalqaro qayta sug‘urta munosabatlarini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish hamda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash orqali milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvini jadallashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.
Kalit so‘zlar: milliy sug‘urta bozori, xalqaro integratsiya, raqobatbardoshlik, sug‘urta xizmatlari, xalqaro sug‘urta bozori, sug‘urta kompaniyalari, qayta sug‘urtalash, xorijiy investitsiyalar, moliyaviy barqarorlik, sug‘urta nazorati, raqamli transformatsiya, xalqaro standartlar.

Abstract: The article examines the theoretical and methodological foundations, current trends, and development prospects of the international integration of the national insurance market and the enhancement of its competitiveness. The study analyzes the institutional development of Uzbekistan's insurance market, the structure and volume of insurance services, integration processes into the international insurance market, cooperation mechanisms with foreign insurance companies, and issues related to the implementation of international standards in national practice. Furthermore, based on the principles of the International Association of Insurance Supervisors (IAIS), international insurance supervisory standards, and the experience of advanced foreign countries, the article explores the factors determining the competitiveness of the national insurance market. The article develops scientific and practical proposals and recommendations for accelerating the international integration of the national insurance market through the diversification of insurance services, the development of international reinsurance relations, the attraction of foreign investment, the extensive adoption of digital technologies, and the strengthening of the financial stability of insurance companies.
Keywords: national insurance market, international integration, competitiveness, insurance services, international insurance market, insurance companies, reinsurance, foreign investment, financial stability, insurance supervision, digital transformation, international standards.

Абстрактный: В статье исследуются теоретико-методологические основы, современные тенденции и перспективы развития международной интеграции национального страхового рынка и повышения его конкурентоспособности. В исследовании анализируются институциональное развитие страхового рынка Узбекистана, структура и объём страховых услуг, процессы интеграции в международный страховой рынок, механизмы сотрудничества с иностранными страховыми компаниями, а также вопросы внедрения международных стандартов в национальную практику. Кроме того, на основе принципов Международной ассоциации органов страхового надзора (IAIS), международных стандартов страхового надзора и опыта передовых зарубежных стран изучаются факторы, определяющие конкурентоспособность национального страхового рынка. В статье разрабатываются научно-практические предложения и рекомендации по ускорению международной интеграции национального страхового рынка посредством диверсификации страховых услуг, развития международных отношений в сфере перестрахования, привлечения иностранных инвестиций, широкого внедрения цифровых технологий и укрепления финансовой устойчивости страховых компаний.
Ключевые слова: национальный страховой рынок, международная интеграция, конкурентоспособность, страховые услуги, международный страховой рынок, страховые компании, перестрахование, иностранные инвестиции, финансовая устойчивость, страховой надзор, цифровая трансформация, международные стандарты.

Kirish (Введение/Introduction).

Xalqaro sug‘urta bozorida raqobatbardoshlik sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi, kapitallashuv darajasi, sug‘urta xizmatlarining diversifikatsiyasi, qayta sug‘urtalash imkoniyatlari, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va xalqaro standartlarga muvofiqligi bilan belgilanadi. Xalqaro sug‘urta nazoratchilari assotsiatsiyasi (IAIS) tomonidan ishlab chiqilgan Sug‘urta nazoratining asosiy tamoyillari (Insurance Core Principles – ICP) sug‘urta bozorida samarali nazorat tizimini shakllantirish, sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, xalqaro talablar asosida tartibga solish va sug‘urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilishning muhim metodologik asosini tashkil etadi [1]. Shuningdek, xalqaro sug‘urta bozorida transchegaraviy faoliyat, qayta sug‘urtalash munosabatlari va xorijiy kapital ishtirokini rivojlantirish milliy sug‘urta tizimlarining xalqaro raqobat muhitiga moslashishini taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganish, xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish hamda O‘zbekiston sug‘urta bozorini xalqaro sug‘urta tizimiga samarali integratsiyalashuviga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvi faqat xorijiy kapitalni jalb etish yoki sug‘urta xizmatlari eksportini kengaytirish nuqtayi nazaridan emas, balki institutsional rivojlanish, xalqaro prudensial nazorat, qayta sug‘urtalash mexanizmlari va raqobat muhitining o‘zaro bog‘liqligi asosida o‘rganiladi. Jahon savdo tashkilotining Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuvida (GATS) sug‘urta va qayta sug‘urtalash xizmatlari xalqaro moliyaviy xizmatlar savdosining muhim tarkibiy yo‘nalishlari sifatida belgilangan [2]. Shuningdek, xalqaro xizmatlar savdosining transchegaraviy yetkazib berish, xorijiy mamlakatda tijorat ishtirokini tashkil etish va boshqa shakllari milliy sug‘urta bozorlarining xalqaro iqtisodiy munosabatlarga qo‘shilish mexanizmlarini ifodalaydi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Xalqaro sug‘urta bozorini tartibga solish va uning institutsional rivojlanishiga oid tadqiqotlarda Xalqaro sug‘urta nazoratchilari assotsiatsiyasi (IAIS) tomonidan ishlab chiqilgan Insurance Core Principles muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu tamoyillarda sug‘urta bozorini samarali nazorat qilish, sug‘urta kompaniyalarining korporativ boshqaruvi, risklarni boshqarish, kapitallashuv va to‘lovga qobiliyatliligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [4]. Mazkur yondashuvlar milliy sug‘urta bozorining xalqaro standartlarga moslashuvi va xorijiy sug‘urta tashkilotlari bilan teng raqobat sharoitida faoliyat yuritishi uchun institutsional zamin yaratadi.

Jahon savdo tashkilotining (WTO) Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuvi (GATS) xalqaro sug‘urta xizmatlari savdosini rivojlantirish, transchegaraviy sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish va xorijiy mamlakatlarda tijorat ishtirokini tashkil etishning huquqiy asoslarini belgilaydi [5]. Ushbu kelishuv doirasidagi yondashuvlar sug‘urta xizmatlari bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish, xalqaro xizmatlar savdosidagi to‘siqlarni kamaytirish va milliy sug‘urta kompaniyalarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

OECD tomonidan moliyaviy xizmatlar va sug‘urta bozoriga oid ishlab chiqilgan tahliliy yondashuvlarda raqobat muhitini rivojlantirish, bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini oshirish hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish masalalari muhim o‘rin egallaydi [6]. Bu yondashuvlar sug‘urta bozorining raqobatbardoshligini faqat kompaniyalar soni yoki sug‘urta mukofotlari hajmi bilan emas, balki xizmatlar sifati, mahsulotlar xilma-xilligi, moliyaviy barqarorlik va institutsional muhit bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro sug‘urta bozorida qayta sug‘urtalash munosabatlari ham milliy sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. IAISning ICP 13 tamoyilida qayta sug‘urtalash va risklarni boshqa subyektlarga o‘tkazish mexanizmlari sug‘urta tashkilotlarining umumiy risklarni boshqarish va kapital strategiyasining tarkibiy qismi sifatida belgilangan. Xususan, qayta sug‘urtalash dasturi sug‘urta kompaniyasining faoliyat ko‘lami, risklar tarkibi, kapital imkoniyatlari va moliyaviy barqarorligiga muvofiq shakllantirilishi lozim [7]. Bu esa milliy sug‘urta kompaniyalarining xalqaro qayta sug‘urtalash tizimida ishtirok etishi orqali yirik risklarni taqsimlash, sug‘urta portfelini diversifikatsiyalash va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Tadqiqot milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini oshirishga oid nazariy qarashlar, xalqaro metodologik yondashuvlar hamda rasmiy statistik ma’lumotlarni o‘rganish asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning axborot bazasini Xalqaro sug‘urta nazoratchilari assotsiatsiyasi (IAIS), Jahon savdo tashkiloti (WTO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) materiallari hamda O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining sug‘urta bozori bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlari tashkil etdi [1–5]. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Milliy sug‘urta bozorining rivojlanish darajasi va xalqaro raqobatbardoshligini baholashda sug‘urta mukofotlari hajmi, sug‘urta to‘lovlari, sug‘urta bozorining YAIMdagi ulushi, sug‘urta zichligi va sug‘urta penetratsiyasi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish nazarda tutildi. Sug‘urta penetratsiyasi quyidagi formula asosida hisoblanadi: SP = (SM / YAIM) × 100%, bunda SM – jami sug‘urta mukofotlari, YAIM – yalpi ichki mahsulot. Sug‘urta zichligi esa aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofotlari orqali aniqlanadi: SZ = SM / A, bunda A – mamlakat aholisi soni. Mazkur ko‘rsatkichlar milliy sug‘urta bozorining iqtisodiyotdagi o‘rni va xalqaro bozorlarga nisbatan rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi.

Shuningdek, xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarini tahlil qilishda xorijiy kapital ishtiroki, xalqaro qayta sug‘urtalash operatsiyalari, sug‘urta xizmatlari diversifikatsiyasi va xalqaro standartlarga muvofiqlik kabi omillar tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Xalqaro tajriba va milliy amaliyotning qiyosiy tahlili orqali O‘zbekiston sug‘urta bozorining institutsional va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari aniqlandi. Tadqiqotning cheklovi sifatida ayrim xalqaro integratsiya indikatorlari bo‘yicha ochiq statistik ma’lumotlarning cheklanganligi, xorijiy kapital va transchegaraviy sug‘urta operatsiyalari to‘g‘risidagi axborotlarning yetarli darajada batafsil e’lon qilinmasligi qayd etiladi. Shu sababli tadqiqotda mavjud rasmiy ma’lumotlar va xalqaro metodologik yondashuvlar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi, ma’lumotlar bilan tasdiqlanmagan miqdoriy baholash va reytinglardan foydalanilmadi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты /Analysis and results)

Milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini oshirish jarayoni, avvalo, uning iqtisodiy salohiyati, institutsional rivojlanish darajasi, sug‘urta xizmatlari hajmi va tarkibi, moliyaviy barqarorligi hamda xalqaro sug‘urta munosabatlaridagi ishtiroki bilan belgilanadi. Xalqaro sug‘urta bozorida raqobatning kuchayishi milliy sug‘urta kompaniyalaridan xizmatlar sifatini yaxshilash, sug‘urta mahsulotlarini diversifikatsiyalash, qayta sug‘urtalash imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritishni talab etmoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida 2025–2026-yillarda amalga oshirilayotgan institutsional va iqtisodiy islohotlar uning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi uchun muhim shart-sharoitlarni shakllantirmoqda. Mazkur jarayonni baholashda sug‘urta mukofotlari va to‘lovlari dinamikasi, sug‘urta bozorining YAIMdagi ulushi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofotlari, sug‘urta kompaniyalarining kapitallashuvi va xalqaro qayta sug‘urtalash operatsiyalari kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tahlilda 2025-yil va 2026-yilning mos hisobot davrlarini qiyoslash, ko‘rsatkichlarning mutlaq va nisbiy o‘zgarishini aniqlash hamda ularning milliy sug‘urta bozorining xalqaro raqobatbardoshligiga ta’sirini baholash asosiy metodologik yondashuv sifatida tanlanadi. Bunda faqat sug‘urta mukofotlari hajmining o‘sishi emas, balki ushbu o‘sishning sug‘urta xizmatlari sifati, bozor diversifikatsiyasi va xalqaro integratsiya bilan qay darajada bog‘liqligiga ham e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanishi sug‘urta mukofotlari hajmi bilan bir qatorda, sug‘urta da’volarining o‘zgarishi, sug‘urta qoplamalarining to‘lanishi va nizoli holatlarning oldini olish samaradorligi bilan ham belgilanadi. Sug‘urta da’volari sonining o‘sishi sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talab, sug‘urta portfeli hajmi va sug‘urta hodisalari dinamikasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli da’volarning qanoatlantirilish darajasi, rad etish holatlari va ularni ko‘rib chiqish muddatlarini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur bo‘limda O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi rasmiy statistik ma’lumotlar asosida sug‘urta da’volari dinamikasi baholanib, ularning qanoatlantirilishi va konfliktli holatlarni monitoring qilishning asosiy yo‘nalishlari yoritiladi.

Milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuv imkoniyatlarini baholashda, birinchi navbatda, uning iqtisodiy salohiyati va moliyaviy resurslari dinamikasini o‘rganish zarur. Sug‘urta mukofotlari hajmi, sug‘urta to‘lovlari, amaldagi shartnomalar soni, sug‘urta tashkilotlarining ustav kapitali va investitsiya faoliyati bozorning institutsional hamda moliyaviy rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim indikatorlar hisoblanadi.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2026-yil II chorak yakunlari bo‘yicha rasmiy statistik

hisobotidagi 2025-yil va 2026-yilning yanvar–iyun davrlari ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Mazkur davrlarni taqqoslash sug‘urta bozoridagi o‘zgarishlarni bir xil vaqt oralig‘ida baholash imkonini beradi [8].

1-jadval.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkich	01.07.2025	01.07.2026	O‘zgarish
Sug‘urta mukofotlari, trln so‘m	6,235	8,020	+28,6%
Sug‘urta to‘lovlari, trln so‘m	1,245	2,253	+80,9%
Sug‘urta tashkilotlari soni, dona	34	35	+2,9%
Ustav kapitali, trln so‘m	3,129	4,293	+37,2%
Sug‘urta agentlari soni, dona	3 442	3 951	+14,8%
Amaldagi sug‘urta shartnomalari, mln dona	11,374	12,956	+13,9%
Sug‘urta tashkilotlari investitsiyalari, trln so‘m	8,340	10,740	+28,8%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [8].

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2026-yilning birinchi yarim yilligida O‘zbekiston sug‘urta bozorida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ijobiy o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, sug‘urta mukofotlari hajmi 6,235 trln so‘mdan 8,020 trln so‘mga yetib, 28,6 foizga oshgan. Bu holat sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabning kengayishi va sug‘urta bozorining iqtisodiy faolligi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

E'tiborli jihati shundaki, sug‘urta to‘lovlari hajmi sug‘urta mukofotlariga nisbatan ancha yuqori sur’atda o‘sgan. Jumladan, 2025-yilning birinchi yarim yilligida sug‘urta to‘lovlari 1,245 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilning mos davrida 2,253 trln so‘mga yetgan. Natijada sug‘urta to‘lovlarining jami sug‘urta mukofotlariga nisbati 20,0 foizdan 28,1 foizga ko‘tarilgan. Ushbu holat sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta majburiyatlarini bajarish hajmi ortganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur nisbatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar koeffitsiyenti sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas, chunki unda davrlararo zaxiralar va to‘lovlarning hisobga olinishi bilan bog‘liq farqlar mavjud.

Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali 37,2 foizga oshib, 4,293 trln so‘mga yetgani ham muhim natija hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy imkoniyatlari kengayayotganini, yirik risklarni qabul qilish va xalqaro qayta sug‘urtalash munosabatlarida faolroq ishtirok etish uchun kapital bazasi mustahkamlanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, kapitallashuvning o‘sishi xalqaro raqobatbardoshlikni avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Buning uchun kapitalning sifati, risklarga muvofiqligi va to‘lovga qobiliyatlilik darajasi ham baholanishi zarur.

Milliy sug‘urta bozorining xalqaro raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri sug‘urta xizmatlari tarkibining diversifikatsiyalashganligi hisoblanadi. Bozorda majburiy va ixtiyoriy sug‘urta xizmatlari, hayot sug‘urtasi hamda turli moliyaviy va tijorat risklarini sug‘urtalash yo‘nalishlarining rivojlanishi uning xalqaro bozordagi imkoniyatlarini kengaytiradi.

2-jadval.

Sug‘urta mukofotlari va to‘lovlarining sug‘urta sohalari bo‘yicha tarkibi.

Ko‘rsatkich	2025-yil	2026-yil	O‘zgarish
Sug‘urta mukofotlari			
Umumiy sug‘urta sohasi	5 850,6	7 494,9	+28,1%
Hayot sug‘urtasi sohasi	384,2	524,8	+36,6%
Jami	6 234,9	8 019,7	+28,6%
Sug‘urta to‘lovlari			
Umumiy sug‘urta sohasi	1 180,9	2 156,4	+82,6%
Hayot sug‘urtasi sohasi	64,5	96,6	+49,8%
Jami	1 245,4	2 253,0	+80,9%

Manba: Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2026-yil II chorak hisoboti asosida muallif hisob-kitoblari [8].

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2026-yilning birinchi yarim yilligida umumiy sug‘urta sohasi jami sug‘urta mukofotlarining qariyb 93,5 foizini, hayot sug‘urtasi esa 6,5 foizini tashkil etgan. Bu esa milliy sug‘urta bozorida umumiy sug‘urta xizmatlari ustunlik qilayotganini ko‘rsatadi.

Hayot sug‘urtasi mukofotlarining 36,6 foizga o‘sishi ijobiy tendensiya hisoblanadi. Shunga qaramay, uning jami sug‘urta mukofotlaridagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Xalqaro sug‘urta bozorida hayot sug‘urtasi uzoq muddatli investitsiya resurslarini shakllantirish, aholini ijtimoiy va moliyaviy himoyalash hamda institutsional investorlar faoliyatini rivojlantirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekistonda hayot sug‘urtasi, uzoq muddatli jamg‘arib boriladigan sug‘urta va pensiya sug‘urtasi mahsulotlarini rivojlantirish bozor diversifikatsiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvini ifodalovchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri xorijiy sug‘urta va qayta sug‘urtalash tashkilotlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmidir. Qayta sug‘urtalash mexanizmi sug‘urta kompaniyalariga yirik risklarni xalqaro miqyosda taqsimlash, sug‘urta portfelini diversifikatsiyalash, kapitalga tushadigan bosimni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi [9].

O‘zbekiston sug‘urta bozorining 2025–2026-yillardagi xalqaro qayta sug‘urtalash operatsiyalarini baholashda xorijiy sug‘urta tashkilotlariga qayta sug‘urtalash uchun berilgan va ulardan qabul qilingan sug‘urta mukofotlari alohida tahlil qilindi.

3-jadval.

Xorijiy sug‘urta tashkilotlari bilan qayta sug‘urtalash operatsiyalari dinamikasi (*mln so‘mda*)

Ko‘rsatkich	2025-yil	2026-yil	O‘zgarish
Umumiy sug‘urta sohasi			
Qayta sug‘urtalashga berilgan mukofotlar	1 335 529	1 332 708	−0,2%
Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan mukofotlar	887 805	1 152 313	+29,8%
Hayot sug‘urtasi sohasi			
Qayta sug‘urtalashga berilgan mukofotlar	52 914	–	−100,0%
Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan mukofotlar	–	206 305	Yangi operatsiya

Manba: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, 2026-yil II chorak hisoboti, 1.6-jadval asosida muallif tomonidan tuzilgan [8].

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumiy sug‘urta sohasida xorijiy qayta sug‘urtalash tashkilotlariga berilgan sug‘urta mukofotlari 2025-yildagi 1 335,5 mlrd so‘mdan 2026-yilda 1 332,7 mlrd so‘mga kamaygan. Mutlaq kamayish uncha katta bo‘lmasa-da, ushbu ko‘rsatkichning umumiy sug‘urta mukofotlariga nisbati 23 foizdan 18 foizga tushgan. Bu holat sug‘urta kompaniyalarining risklarni qayta sug‘urtalash orqali xorijga uzatish darajasi nisbatan pasayganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, xorijiy tashkilotlardan qayta sug‘urtalashga qabul qilingan mukofotlar 29,8 foizga oshib, 1 152,3 mlrd so‘mga yetgan. Ushbu ko‘rsatkichning umumiy sug‘urta mukofotlariga nisbatan ulushi 15 foizni tashkil etgan. Bu esa milliy sug‘urta tashkilotlarining qayta sug‘urtalash bozorida nafaqat risklarni uzatuvchi, balki xorijiy risklarni qabul qiluvchi subyekt sifatida ham ishtiroki kengayayotganini anglatadi.

Hayot sug‘urtasi sohasida esa 2026-yilda xorijiy qayta sug‘urtalash tashkilotlaridan 206,3 mlrd so‘mlik mukofot qabul qilingan bo‘lib, bu hayot sug‘urtasi mukofotlarining 39 foiziga teng. Mazkur holat hayot sug‘urtasi segmentida xalqaro qayta sug‘urtalash aloqalari rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu ko‘rsatkichni milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvi to‘liq shakllanganligining dalili sifatida emas, balki uning rivojlanish imkoniyatlarini ifodalovchi indikator sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa (Заключение/Conclusion)

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorida 2025–2026-yillarda ijobiy rivojlanish tendensiyalari shakllanganini, sug‘urta

mukofotlari, sug‘urta to‘lovlari, sug‘urta tashkilotlarining ustav kapitali va investitsiya faoliyati hajmi oshganini ko‘rsatdi. Xususan, 2026-yilning birinchi yarim yilligida sug‘urta mukofotlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 28,6 foizga, sug‘urta tashkilotlarining ustav kapitali 37,2 foizga, investitsiyalari esa 28,8 foizga oshgan. Mazkur natijalar milliy sug‘urta bozorining iqtisodiy va moliyaviy salohiyati kengayayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini oshirishda ayrim tarkibiy muammolar mavjudligini aniqlash imkonini berdi. Jumladan, hayot sug‘urtasi mukofotlarining jami sug‘urta mukofotlaridagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda, investitsiya portfelida depozitlar ustunlik qilmoqda hamda umumiy sug‘urta segmentida yirik kompaniyalar konsentratsiyasi biroz ortgan. Bu holatlar sug‘urta xizmatlarini diversifikatsiyalash, investitsiya faoliyatini takomillashtirish va sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro qayta sug‘urtalash operatsiyalari tahlili milliy sug‘urta kompaniyalarining xalqaro bozordagi ishtiroki kengayayotganini ko‘rsatdi. Xususan, xorijiy tashkilotlardan qayta sug‘urtalashga qabul qilingan mukofotlar hajmining o‘sishi milliy sug‘urta tashkilotlarining xalqaro risklarni taqsimlash jarayonlaridagi ishtiroki ortib borayotganini anglatadi. Biroq ushbu yo‘nalishda xalqaro qayta sug‘urtalovchilar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro reyting talablariga muvofiqlikni oshirish va qayta sug‘urtalash portfelini diversifikatsiyalash talab etiladi.

Tadqiqot natijalari asosida milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, sug‘urta kompaniyalarining xalqaro qayta sug‘urtalash bozoridagi ishtirokini kengaytirish, xorijiy qayta sug‘urtalovchilar bilan strategik hamkorlikni rivojlantirish hamda yirik va katastrofik risklarni xalqaro miqyosda taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Ikkinchidan, hayot sug‘urtasi, jamg‘arib boriladigan sug‘urta, investitsion sug‘urta va uzoq muddatli sug‘urta mahsulotlarini rivojlantirish orqali milliy sug‘urta xizmatlari tarkibini diversifikatsiyalash lozim. Bu sug‘urta bozorining investitsion salohiyatini oshirish va aholi hamda korxonalarning sug‘urta himoyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, sug‘urta tashkilotlarining investitsiya portfelini diversifikatsiyalash, depozitlarga yuqori darajada bog‘liqlikni kamaytirish va ishonchli moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunda aktivlar va sug‘urta majburiyatlari muddatlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash muhim hisoblanadi.

To‘rtinchidan, milliy sug‘urta nazorati va tartibga solish tizimini IAISning xalqaro tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish, riskka asoslangan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda sug‘urta kompaniyalarining korporativ boshqaruvi va moliyaviy hisobotlari shaffofligini oshirish zarur.

Beshinchidan, sug‘urta bozorida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, kichik va o‘rta sug‘urta kompaniyalarining institutsional hamda texnologik salohiyatini rivojlantirish, yangi ishtirokchilar uchun bozorga kirish imkoniyatlarini takomillashtirish lozim.

Oltinchidan, sug‘urta faoliyatiga Big Data, sun’iy intellekt, blokcheyn va InsurTech yechimlarini keng joriy etish, xalqaro elektron sug‘urta platformalari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali xizmatlar ko‘rsatish tezligi, sifati va operatsion samaradorligini oshirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, milliy sug‘urta bozorining xalqaro integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini oshirish alohida yo‘nalishlarni mustaqil rivojlantirish bilan emas, balki moliyaviy barqarorlik, institutsional islohotlar, xalqaro qayta sug‘urtalash, xizmatlar diversifikatsiyasi va raqamli transformatsiyani o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi. Mazkur yo‘nalishlarning kompleks amalga oshirilishi O‘zbekiston sug‘urta bozorining xalqaro moliya tizimidagi o‘rnini mustahkamlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va milliy sug‘urta kompaniyalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim iqtisodiy va institutsional asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups (ICPs and ComFrame). December 2024.
2. World Trade Organization (WTO). General Agreement on Trade in Services (GATS): Annex on Financial Services.
3. World Trade Organization (WTO). The GATS: Objectives, Coverage and Disciplines.
4. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups (ICPs and ComFrame). December 2024.
5. World Trade Organization (WTO). General Agreement on Trade in Services (GATS). Annex on Financial Services.
6. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Insurance Capital Standard (ICS). 2024.
7. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Insurance Core Principles. ICP 13: Reinsurance and Other Forms of Risk Transfer. 2024.
8. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining 2026-yil II chorak yakunlari bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlari. Toshkent, 2026.
9. Xolbaev Azamat Yuldashovich. (2025). Milliy sug‘urta bozorida informatsion risklarni sug‘urtalashni takomillashtirish. O’zbekiston sug’urta Bozori, 2(3), 34–37. https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/297